



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 7, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 7, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2024

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлоқ  
хужалиғини механизациялаш  
муҳандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайжон давлат  
иқтисодиёт университети

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Джоробекова Айнуэр Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Санпова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Ўзбекистон Миллий университети

**Худайкулов Тулқин Дўстбобоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз далам педагогика институти

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети


**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети

Page Maker | Верстка | Са, ифаловчи: @tadqiqotdesign

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000


<b>1. Жаҳонгирбек Жонқобилов</b> СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН КЕЙИНГИ ЙИЛЛАРДА СУҒОРИШ ТИЗИМИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ.....	4
<b>2. Обиджан Мадаминов</b> ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ХАЛҚАРО МУНОСАБАТЛАР ТИЗИМИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ.....	10
<b>3. Акмал Менглибоев</b> СУРХОН ВОҲАСИДА 1921-1922 ЙИЛЛАРДА МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК ҲАРАКАТИНИНГ КУЧАЙИШИ.....	15
<b>4. Baxtiyor Nazirov</b> XOTIN-QIZLAR SPORTINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI VA MAVJUD MUAMMOLAR.....	22
<b>5. Mukhiddinjon Primov</b> O‘ZBEKISTONDA KARTOGRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARNING QO‘LLANILISHI.....	28
<b>6. Asror Raximov</b> QARSHI CHO‘LI TARIXIGA NAZAR.....	35
<b>7. Kamoliddin Toshov</b> IKKINCHI JAHON URUSH YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATI AHOLISINING G‘ALABAGA QO‘SHGAN MUNOSIB HISSASI.....	42
<b>8. Sanjarbek Shoyimov</b> SOVET-AFG‘ON URUSHIDA O‘ZBEKISTONNING ISHTIROKI VA URUSHNING U UCHUN SALBIY OQIBATLARI.....	49
<b>9. Ikrom Xudayberdiyev</b> DYURAND CHEGARA CHIZIG‘IGA AFG‘ONISTON VA POKISTONNING MUNOSABATI.....	57
<b>10. Иззат Юсупов</b> МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА “ЎЗБЕКИСТОН ПОЧТАСИ” БУХОРО САМАРҚАНД ВА НАВОИЙ ФИЛИАЛЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ.....	63
<b>11. Шерзоджон Чориев</b> АРХИВ ҲУЖЖАТЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЖТИМОИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР ТАРИХИЙ МАТЕРИАЛЛАР.....	69
<b>12. Мардон Хасанов</b> ХОРАЗМДАГИ ИСЛОМДАН ОЛДИНГИ ДИНИЙ ҚАРАШЛАР (ХРИСТИАНЛИК МИСОЛИДА).....	76



**Asror Eshonqulovich Raximov,**  
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston  
Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
e-mail: sardormuhammadali94@gmail.com

## QARSHI CHO‘LI TARIXIGA NAZAR

**For citation:** Asror E. Rakhimov. A LOOK AT THE HISTORY OF THE KARSHI DESERT. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 1, pp.35-41

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10614759>

### АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada Qarshi cho‘li tarixi, cho‘l aholisining asrlar davomida shakllangan xo‘jalik tarmoqlari, Qarshi cho‘liga ko‘chib kelgan chorvador qabilalarning o‘rnashib qolishiga sabab bo‘lgan tabiiy-geografik omillar ko‘rsatib o‘tilgan. Sovet hokimiyati tomonidan Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish jarayonlari, irrigatsiya inshootlarining qurilish tarixi, hamda cho‘lda paxtachilikning rivojlantirilishi o‘rganilgan. Tadqiqot obyektida sovet hokimiyati yuritgan agrar siyosat natijasida cho‘lning ming yillik xo‘jalik tarmoqlari va ekologiyasiga yetkazgan salbiy ta‘siri tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Cho‘l, suv, chorvachilik, “Karshistroy”, paxta, iqtisodiyot, geografiya.

---

**Асрор Эшанкулович Рахимов,**  
независимый исследователь Национального  
университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека  
e-mail: sardormuhammadali94@gmail.com

## ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ ПУСТЫНИ КАРШИ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается история Каршинской степи, формировавшиеся на протяжении веков, экономические связи степного населения, природно-географические факторы, приведшие к расселению скотоводческих племен, переселившихся в Каршинскую степь. Изучены процессы освоения Каршинской степи советской властью, история строительства ирригационных сооружений, развитие хлопководства. Объектом исследования является анализ негативного воздействия аграрной политики советского правительства на тысячелетнюю экономику и экологию степи.

**Ключевые слова:** Пустыня, вода, «Каршистрой», хлопок, экономика, география.

**Asror E. Rakhimov,**  
Researcher of the National University of  
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
e-mail: sardormuhammadali94@gmail.com

## A LOOK AT THE HISTORY OF THE KARSHI DESERT

### ABSTRACT

This article describes the history of the Karshi desert, the economic networks of the desert population that were formed over the centuries, and the natural geographical factors that led to the settlement of pastoral tribes that moved to the Karshi desert. The processes of development of the Karshi desert by Soviet power, the history of the construction of irrigation structures, and the development of cotton growing were studied. The object of the research is the analysis of the negative impact of the desert on the thousand-year-old economy and ecology as a result of the agrarian policy of the Soviet government.

**Index terms:** Desert, water, livestock, “Karshistory”, cotton, economics, geography.

### 1. Dolzarbligi:

Ma'lumki, har qanday hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga uning tabiiy-geografik joylashuvi ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblangan. Qarshi cho'li tarixini, xo'jalik an'alarini bilish hamda o'zlashtirilishi tarixini tadqiq etish, kelajakda mazkur hududda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni oldindan ko'rish yoki ularni bartaraf etish uchun muhim strategiyalarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy qilish imkoniyatini berishi mumkin.

### 2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida, tadqiqot metodologiyasi sifatida birinchi navbatda tarixiylik, xolislik, uzviylik, ketma-ketlik va qiyosiy taqqoslash kabi metodologiyadan foydalanilgan holda, Qarshi cho'li tarixiga nazar tashlandi.

Ilmiy maqolani tayyorlashda o'tmishning mashhur muarrixlari Sharofuddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh va Hofiz Tanish Al-Buxoriylarning asarlaridan, hamda mashhur olimlarimiz A.R. Muhammadjonov va A. Asqarovlarning asarlaridan, A.V. Chapligin, G.N. Vinogradov va boshqa sovet davri olimlarining tadqiqotlaridan, O'zbekiston Milliy arxivining R-2783 va R-2743-jamg'armalarida saqlanayotgan manbalaridan va boshqa adabiyotlardan foydalanilgan.

### 3. Tadqiqot natijalari:

Bizga ma'lumki, har doim insonlar hayoti va xo'jaligi uchun tabiiy-geografik omillar muhim sanalgan. Bu esa ularning ma'lum hududlarni o'zlariga makon tutib, yashab qolishlari uchun asosiy sabablardan biri bo'lgan. Ular o'z xo'jaliklarini asrlar davomida tabiiy omillarga, undagi o'zgarishlarga tadrijiy moslashtirib, xo'jalik yuritishgan. Qarshi cho'li aholisining xo'jalik hayoti ham asrlar davomida tabiiy omillar bilan bog'liq tarzda rivojlangan. Chorvachilik – cho'l aholisining muhim xo'jalik tarmog'laridan biri bo'lib kelgan.

Quyi Zarafshon vodiysini tadqiq etgan qadimshunos olimlarimizning fikriga ko'ra, Zarafshonning quyi qismiga tutashgan Qarshi cho'lining shimoli-g'arbiy hududlarida odamlar neolit va bronza davrida ham yashagan [1]. Bu esa Qarshi cho'li tabiiy-geografik jihatdan insonlar yashashi mumkin bo'lgan hudud ekanligini anglatadi.

Akademik A. Asqarov o'zining “O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi” asarida “O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy tomonidan prototurkiy tilli Andronovo chorvadorlari, miloddan avvalgi III asrdan sarmatlar, hunlar, miloddan avvalgi II asr ikkinchi yarmidan yuyechjilar, ulardan so'ng xioniylar, kidariylar, eftaliylar va turk xoqonligi kirib keldi. Ularning aksariyat ko'pchiligi O'rta Osiyo tabiiy-geografik va iqlimiy sharoitlariga moslashib, bu joylarda qolib ketdilar[2]” deb qayd etadi. Bu tarixiy jarayon mintaqada keyingi asrlarda ham davom etgan ko'rinadi.

Bugungi kunda yurtimizda yashovchi arablarning ajdodlari o'rta asrlarda bu yerlarga kelib yashab qolishgan. Bugun ular orasida ikki sheva: Buxoro va Qashqadaryo shevasi keng tarqalgan[3].

Qarshi cho'lida o'zining milliy an'alarini qisman bo'lsada saqlab kelayotgan Jenov arablari, shuningdek, Koson va Qarshi tumanida ham o'zlarining kelib chiqishini sahro arablari bilan bog'laydigan aholini uchratasiz.

Yurtimizda Farg'ona vodiysi kabi sersuv maskanlar bo'lsada, mo'g'ul asilzodalari XIV asrda Nasafga ko'chib kelishni ma'qul ko'rishgan[4]. Aftidan, bu bejizga emas. Ularning bu yerda yashab qolishini esa shunchaki tasodif deb bo'lmaydi. Temuriylar va xonliklar davrida ham Qarshi qal'asi Movarounnahr ostonasidagi muhim strategik mavze[5], Qarshi cho'li esa asilzodalarning zavqli ov maydoni[6] bo'lgan. Cho'lda shuvoq, partek, singren, juzgun, quyonsuyak, sarsazan, donasho'r, yantoq, va yulgun formatsiyalari keng tarqalgan[7]. Cho'l tabiati chorvachilik (qo'y va echki) uchun mos joy hisoblangan. Chorvachilik rivoji uchun zarur ozuqa manbaiga boy Qarshi cho'li asrlar davomida chorvador qabilalarni o'ziga jalb etgan bo'lishi mumkin.

Keyingi davrlarda ham Qarshi cho'li chorvachilik rivojlangan muhim hudud sanalgan. Buxoro amirligining shaharlaridan biri Qarshida 1906-yil Bekmurodboy ismli mahalliy chorvador, qo'ylarining junidan tushgan mablag'i evaziga pishiq g'ishtdan madrasa qurdirgan[8]. Bu madrasani faqatgina qo'ylarning junidan kelgan mablag'i evaziga qurilganligiga e'tibor qaratsak, chorvador o'tgan asrning boshlarida Buxoro amirligidagi eng yirik chorva egalaridan bir bo'lganligi haqida bizda tasavvur paydo bo'ladi.

Rossiya imperiyasi davrida Qarshi cho'lini sug'orish to'g'risida mutaxassislarning loyihalari[9] mavjud bo'lgan bo'lsada, Buxoro amirligidagi siyosiy va iqtisodiy vaziyat amaliy ishlar boshlanishiga to'sqinlik qilgan bo'lishi mumkin. O'tgan asrning 20-30-yillarida Qashqadaryo havzasining suv resurslari sovet mutaxassislari tomonidan keng o'rganilgan[10]. Dastlab, texnik va iqtisodiy imkoniyatlar mavjud bo'lmaganligi sabab Amudaryo suvini Qarshi cho'lga oqizish imkoniyati bo'lmagan. Shunday bo'lsada, 1940-yillardan hukumat viloyatda paxtachilikni rivojlantirish maqsadida mavjud suv resurslaridan foydalanish imkoniyatini hisobga olib, dastlabki yirik irrigatsiya loyihalarini amalga oshirishga kirishgan.

Masalan, Qamashi suv ombori qurilishining loyihasi 1943-yil 14-dekabrda O'zbekiston SSR Narkomvodhoz (Xalq suv xo'jaligi) tomonidan tasdiqlangan[11]. Ammo, loyihani amalga oshirishga Ikkinchi jahon urushi xalaqit bergan bo'lsa kerak. 1954-yil 8-sentabrda O'zbekiston SSR Suv xo'jaligi vaziri tomonidan, o'zgarishlar kiritilgandan (suv omborining hajmi 1943-yildagi loyihada 9,2 million kubometr deb ko'rsatilgan bo'lsa, yangi loyihada suv ombor hajmi 17 million kubometr) so'ng texnik loyiha tasdiqlangan[12]. 1950-yillarga kelib, Qarshi cho'lida paxta yetishtirish uchun yaroqli bo'lgan yerlarni sug'orishga jiddiy e'tibor qaratila boshlangan.

Nuriddin Muhiddinov O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti Raisi lavozimiga tayinlangan (1951-yil) yilda Ittifoqdagi birorta respublika paxta tayyorlash rejasini amalda (O'zbekiston 94 foiz ado etgan) bajarolmagan[13]. Stalin qabulida birinchi marta bo'lgan N.A. Muhiddinov "dohiy"ning savollariga javob berib, shunday degan edi: "Men javob qaytardim. So'ng sug'orish maqsadlari uchun Mirzacho'l, Qarshi cho'li, Markaziy Farg'onada suv xo'jaligi qurilishini kengaytirish niyatimiz borligi, Qoraqalpog'istonda yirik sholichilik xo'jaliklari barpo etishning imkoniyatlari haqida axborot berdim[14]". Albatta, Qarshi cho'lini o'zlashtirishdan sovet hokimiyatining bosh maqsadi paxtaxom ashyosini ko'proq yetishtirish edi.

Shu maqsadda, "Eski Anhor" kanali (1954-1955) qazilgan[15], Qashqadaryo havzasining o'rta oqimida, hukumat 1956-yil suv hajmi 500 mln m<sup>3</sup> bo'lgan Chimqo'rg'on suv omborini qurilishi to'g'risida qaror qabul qilgan[16]. Yuqorida nomlari qayd etilgan irrigatsiya inshootlarining suv resurlaridan to'liq foydalanilgan taqdirda ham, Qarshi cho'lida sug'orilishi rejalashtirilgan 901 ming gektar (unda 565 ming gektar yuqori va o'rta unumdorlik bo'lgan) yerlar[17] da paxtachilikni rivojlantirib bo'lmas edi.

Shu sababli, Amudaryo suvi bilan Qarshi cho'li yerlarini sug'orishning texnik masalasi 1954-yilda "Средазгипроводхлпок" instituti tomonidan ko'rib chiqilgan. Keyinchalik, 1962-yilda Qarshi cho'lini sug'orish zarurligi sabab, Qashqadaryo quyi oqimidagi barcha yerlarni mashina yordamida sug'orishning texnik-iqtisodiy hisoboti tuzilgan[18].

"Karshistoy" (Qarshiqurilish) boshqarmasining (7-dekabr, 1963-yil) tuzilishi[19], Qashqadaryo viloyatining qayta (7-fevral, 1964-yil) tashkil etilishi[20] hamda Qarshi magistral

kanalining qurilish ishlarining (1964-yil) boshlanishi[21] hukumatning Qarshi cho'lida yirik paxtachilik majmuasini yaratishdagi dastlabki muhim qadamlari bo'lgan.

SSSR GOSPLAN (Davlat rejalashtirish qo'mitasi) ekspert komissiyasi Qarshi cho'lini umumiy sug'orish rejasining sxemasini ko'rib chiqib, 1966-yil 2-iyuldagi №13-sonli qarori bilan Qarshi cho'li yerlarini sug'orishning texnik sxemasini tasdiqlagan. Unda Qarshi cho'lini o'zlashtirishning birinchi navbatida 200 ming gektar maydonini sug'orish ham nazarda tutilgan[22].

Qarshi cho'lini o'zlashtirish uch bosqichda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lib[23], cho'l yerlarini sug'orish va o'zlashtirishning umumiy smeta qiymati, loyiha tashkilotining hisob-kitoblariga ko'ra, dastlab, quyidagicha baholangan: Qarshi magistral kanali qurilishi, Amudaryodan suv olish qismi va nasos stansiyalarining qurilishiga – 750 million so'm, xo'jaliklararo va xo'jalik ichidagi sug'orish, kollektor-drenaj tarmoqlariga – 1 milliard so'm, qurilish materiallarini ishlab chiqarish maqsadida – 225 million so'm, savxozlar qurilishi va qishloq xo'jaligiga 1 milliard 115 million so'm mablag' ajratilishi qayd etilgan[24].

Qarshi cho'lini o'zlashtirishning amaliy tadbirlari boshlanmasdan avval, ya'ni 1962-yili Qarshi cho'lida 100 ming gektarga yaqin ekin maydoni mavjud bo'lgan, shundan 45 ming gektari amalda sug'orilgan. Shu yilda Qarshi cho'li xo'jaliklarida 545 ming bosh qo'y va echki, 42 ming bosh qoramol bo'lgan[25].

1-jadval

Xo'jalik tarmoqlar	Yalpi ishlab chiqarish ming so'm hisobida	Foiz hisobida %
<b>1. Dehqonchilik</b>	<b>10875,4</b>	<b>48,9%</b>
Shu jumladan, paxtachilik	9520,4	42,9%
<b>2. Chorvachilik</b>	<b>10556,3</b>	<b>47,4%</b>
Shu jumladan, qo'ychilik	7934,4	35,6%
<b>3. Pillachilik va asalarichilik</b>	<b>841,6</b>	<b>3,7%</b>
<b>Jami:</b>	<b>22273,3</b>	<b>100%</b>

1-jadvalda Qarshi cho'li xo'jalik tarmoqlarining 1958-1963-yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlari qayd etilgan[26].

2-jadval

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birliklari
1.	<b>Sug'oriladigan maydonlarning o'sib borishi:</b>	<b>Ming gektar</b>
	1963-1970-yillar davomida	100
	1963-1980-yillar davomida	520
2.	<b>Paxta xomashyosi 1970-yil darajasida:</b>	<b>Bir gektarda/sentner</b>
	Sovet paxta navi	22
	Sovet ingichka to'rali paxta navi	17
3.	<b>Paxta xomashyosi 1980-yil darajasida:</b>	<b>Bir gektarda/sentner</b>
	Sovet paxta navi	25
	Sovet ingichka to'rali paxta navi	20
4.	<b>Yillik paxta hosili 1970-yil darajasida:</b>	<b>Ming tonna</b>
	Sovet paxta navi	72
	Sovet ingichka to'rali paxta navi	55
	<b>Jami: 1970-yilda</b>	<b>127</b>
5.	<b>Yillik paxta hosili 1980-yil darajasida:</b>	<b>Ming tonna</b>
	Sovet paxta navi	422
	Sovet ingichka to'rali paxta navi	339
	<b>Jami: 1980-yilda</b>	<b>761</b>

2-jadvalda Qarshi cho'lida sug'oriladigan maydonlarning 1963-1980-yillar davomida ehtimoliy o'sish sur'atlari va istiqbolli paxta hosildorligining oshib borish ko'rsatkichlari qayd etilgan[27].

1964-yilda Qashqadaryo viloyatida 201 ming tonna paxta tayyorlangan bo'lsa, bu raqam 1989-yilga kelib 530 ming tonnaga yetgan. Umuman, cho'lda yetishtirilgan paxta salmog'i 2 million tonna bo'lgan[28].

Dastlab, Qarshi cho'lini o'zlashtirish tadbirlari juda katta kuch va musobaqa ruhida boshlangan bo'lsada, Qarshi cho'lini o'zlashtirishning uch bosqichda amalga oshirilishi[29] amalda yakunlanmadi. "Qayta qurish" yillarida Qarshi cho'lini o'zlashtirish ishlari ham sekinlasha boshlagan.

Qarshi cho'li o'zlashtirilishi boshlangandan 1990-yilga qadar 3,5 milliard so'mdan ziyodroq mablag' sarflangan bo'lib, 240 ming gektar yangi yer ochilgan, shu joyda 5 ta qo'riq tuman, 55 ta yangi sovxoz tuzilib, Talimarjon shahri, shaharcha tipidagi ishchi posyolkalari yuzaga kelgan[30].

2023-yil 25-avgust kuni Qarshi shahrida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishda: "Viloyatda 1,4 million gektar yaylov bor. Bu – 7 million bosh qoramol va qo'y-echki uchun tabiiy ozuqa bazasi. Lekin Mirishkor, Muborak va Nishonda 20 foiz yaylov degradatsiyaga uchragan, yana 25 foizida maysa yo'q. Shu bois, kelgusi yilda 100 ming gektar yaylovni yashil ekinlar bilan qoplash dasturi amalga oshirilishi aytili[31]".

#### 4. Xulosalar:

Sovet hokimiyatining Qarshi cho'lida amalga oshirgan agrar siyosati tabiatni inson manfaatlariga bo'ysundirish tamoyili asosida kechgan. Qarshi cho'lga Amudaryodan suv chiqarilganligi, bir necha milliard so'm mablag' sarflab paxtachilik sovxozlarining tashkil etilishi oqibatida cho'ning asrlar davomida barqaror saqlanib kelgan ekologiyasiga jiddiy zarar yetkazgan. Bugungi kunga qadar ham sovet hokimiyati yillarida Qarshi cho'lga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararining asl qiymati hisoblab chiqilmagan.

XX asrning 50-yillari so'ngida ham Qarshi cho'lida chorvachilik (qo'y-echki) muhim xo'jalik tarmog'i sifatida foyda keltirayotgan bo'lsada, sovet hokimiyati cho'ning mavjud iqtisodiy imkoniyatlariga to'g'ri baho bermagan Cho'l aholisining asrlar davomida shakllangan xo'jalik tarmoqlari qisqa muddatda sun'iy ravishda o'zgartirilgan.. Kam xarajat talab etadigan, cho'lda azaldan mavjud bo'lgan xo'jalikning chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish yo'lidan bormagan. Chorvachilik uchun muhim bo'lgan ozuqa manba – cho'l o'simliklari "begona o't" sifatida paxtachilikda ishlatiladigan turli kimyoviy moddalar yordamida yo'q qilingan.

1970-1980-yillarga kelib, cho'l xo'jaligining asosiy tarmoqlari bo'lgan chorvachilik, pillachilik va asalarichilik o'z o'rnini sun'iy ravishda tashkil etilgan yirik paxtachilik sovxozlariga bo'shatib bergan. Qarshi cho'li aholisining kelajak taqdirini va xo'jalik an'analari xavf ostida qoldirib, qishloq xo'jaligida ekstensiv yo'ldan borgan.

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Мухаммаджонов А.Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. – Тошкент. Фан, 1972. –Б. 54. (Muhammadjanov A.R. Irrigation history of the Lower Zarafshan Valley. – Tashkent. Science, 1972. –P. 54.).
2. Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент. Ўзбекистон, 2015. – Б. 347. (Askarov A. The history of the origin of the Uzbek people. - Tashkent. Uzbekistan, 2015. – P. 347.).
3. Донёров А.Х., Бўриев О., Аширов А.А. Марказий Осиё халқлари этнографияси, этногенези ва этник тарихи. – Тошкент. Янги нашр, 2011. – Б. 204. (Donyorov A.Kh., Boriev O., Ashirov A.A. Ethnography, ethnogenesis and ethnic history of the peoples of Central Asia. – Tashkent. New edition, 2011. – P. 204.).
4. Шарофуддин Али Ўзидий. Зафарнома. – Тошкент. Шарк, 1998. – Б. 40-41-314. (Sharafuddin Ali Yazdi. Zafarnoma. – Tashkent. East, 1998. – P. 40-41-314.)
5. Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. 1-китоб. – Тошкент. Меҳнат, 1992. – Б. 76-77.; Ҳофиз Таниш Ал-Бухорий. Абдулланомма. 1-китоб. – Тошкент. Шарк, 1999. – Б. 11, 61.

- (Ibn Arabshah. History of Amir Temur. Book 1. – Tashkent. Labor, 1992. – P. 76-77.; Hafiz Tanish Al-Bukhari. Abdullahnoma. Book 1. – Tashkent. East, 1999. – P. 11, 61.)
6. Ҳофиз Таниш Ал-Бухорий. Абдуллонома. 1-китоб. – Тошкент. Шарқ, 1999. – Б.313. (Hafiz Tanish Al-Bukhari. Abdullahnoma. Book 1. – Tashkent. East, 1999. – P.313.)
  7. Баратов П., Маматқулов М., Рафиқов А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Тошкент. Ўқитувчи, 2002. –Б.351. (Baratov P., Mamatkulov M., Rafikov A. Natural geography of Central Asia. – Tashkent. Teacher, 2002. –P.351.)
  8. Абдусаттор Жуманазар. Насаф. – Тошкент. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. – Б. 155-156. (Abdusattar Jumanazar. Nasaf. – Tashkent. National Library of Uzbekistan named after Alisher Navoi, 2007. – P. 155-156.)
  9. Чаплыгин А. В. Урегулирование водного хозяйства Зеравшанской долины. Москва. Центрального Управления Печати ВСНХ- СССР, 1925. – Б. 54. (Chaplygin A.V. Regulation of the water management of the Zeravshan Valley. Moscow. Central Printing Directorate of the Supreme Economic Council of the USSR, 1925. – P. 54.)
  10. Виноградов Г.Н. Иригация в долине Кашкадарьи. – Ташкент. САННИИРИ, 1935.; Дунин - Барковский Л.В. Развитие орошения в Узбекистане водами Аму-Дарьи. – Ташкент. 1946. (Vinogradov G. N. Irrigation in the Kashkadarya Valley. - Tashkent. SUNNIIRI, 1935; Dunin - Barkovsky L.V. Development of irrigation in Uzbekistan with the waters of the Amu Darya. - Tashkent. 1946.)
  11. ЎзМА, Р-2783-жамғарма, 1-рўйхат, 1109-йиғма жилд, 119-варақ. (UzMA, fund R-2783, list 1, collective volume 1109, page 119.)
  12. ЎзМА, Р-2783-жамғарма, 1-рўйхат, 1109-йиғма жилд, 119-варақ. (UzMA, fund R-2783, list 1, collective volume 1109, page 119.)
  13. Мухиддинов Н. А. Кремлда ўтган йилларим. 1-китоб. – Тошкент. Ўзбекистон, 1995. –Б. 74. (Muhiddinov N. A. My years in the Kremlin. Book 1. –Tashkent. Uzbekistan, 1995. –P. 74.)
  14. Мухиддинов Н. А. Кремлда ўтган йилларим. 1-китоб. – Тошкент. Ўзбекистон, 1995. –Б. 78. (Muhiddinov N. A. My years in the Kremlin. Book 1. –Tashkent. Uzbekistan, 1995. –P. 78.)
  15. Джаббаров Н. Каршинская степь и перспективы ее освоения. “Общественные науки в Узбекистане научные сообщения” журнал. –№ 1. 1966. – С. 43. (Djabbarov N. Karshi steppe and prospects for its development. “Social sciences in Uzbekistan scientific reports” journal. –No. 1. 1966. – P. 43.)
  16. Сиддиқов. Ш. Чимкўрғон чашмаси // “Ўзбекистон колхоз-совхоз ишлаб чиқариши” журнали. – № 8. Август, 1963. – Б. 34-37. (Siddikov. Sh. Chimkurgan spring // "Uzbekistan collective farm-state farm production" journal. - No. 8. August, 1963. – P. 34-37.)
  17. ЎзМА, Р-2743-жамғарма, 1-рўйхат, 493-йиғма жилд, 28-варақ. (UzMA, fund R-2743, list 1, collective volume 493, page 28.)
  18. ЎзМА, Р-2743-жамғарма, 1-рўйхат, 493-йиғма жилд, 19-варақ. (UzMA, fund R-2743, list 1, collective volume 493, page 19.)
  19. Миронов Ю., Азизов А. “Ленин декрети билан”. // “Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги” журнали. № 5. Май, 1968. –Б. 2-6. (Mironov Yu., Azizov A. "By Lenin's decree". // "Agriculture of Uzbekistan" journal. No. 5. May, 1968. – P. 2-6.)
  20. Обломуратов Н. Аграрная политика в Узбекистане. –Ташкент. Узбекистан, 1993. –С. 65. (Oblomuradov N. Agrarian policy in Uzbekistan. - Tashkent. Uzbekistan, 1993. – P.65.)
  21. Худойкулов М. Қарши чўли. – Тошкент. Шарқ, 1998. –Б. 34. (Khudoykulov M. Opposite desert. - Tashkent. East, 1998. – P. 34.)
  22. ЎзМА, Р-2743-жамғарма, 1-рўйхат, 581-йиғма жилд, 71-варақ. (UzMA, fund R-2743, list 1, collective volume 581, page 71.)
  23. ЎзМА, Р-2743-жамғарма, 1-рўйхат, 136-йиғма жилд, 38-варақ.(UzMA, fund R-2743, list 1, collective volume 136, page 38.)
  24. ЎзМА, Р-2743-жамғарма, 1-рўйхат, 136-йиғма жилд, 20-варақ. (UzMA, fund R-2743, list

- 1, collective volume 136, page 20.).
25. ЎзМА, Р-2743-жамғарма, 1-рўйхат, 493-йиғма жилд, 28-варақ. (UzMA, fund R-2743, list 1, collective volume 493, page 28.).
26. ЎзМА, Р-2743-жамғарма, 1-рўйхат, 493-йиғма жилд, 17-варақ. (UzMA, fund R-2743, list 1, collective volume 493, page 17.).
27. ЎзМА, Р-2743-жамғарма, 1-рўйхат, 136-йиғма жилд, 20-варақ. (UzMA, fund R-2743, list 1, collective volume 136, pages 23-24.).
28. Ашуров Б. Ушалган орзу. “Чўл ўлкаси”. №1. 1 январь 1990. – Б. 2. (Ashurov B. A dream come true. "Desert country". #1. 1 January 1990. – P. 2).
29. ЎзМА, 2743-жамғарма, 1-рўйхат, 136-йиғма жилд, 38-варақ. (UzMA, fund 2743, list 1, collective volume 136, page 38.).
30. Ашуров Б. Ушалган орзу. “Чўл ўлкаси”. №1. 1 январь 1990. – Б. 2. (Ashurov B. A dream come true. "Desert country". #1. 1 January 1990. – P. 2).
31. <https://president.uz/>



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 7, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 7, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000